

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING AHAMIYATI VA PISANING XALQARO BAHOLASH DASTURIDAGI O'RNI

**Omonova Dildora Nekmurodovna**

Buxoro davlat pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti

**Rozzoqboyeva Sevara Alijon qizi**

Buxoro davlat pedagogika instituti  
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishining 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14421008>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi kunda har bir davlat ishtirok etishi muhim bo'lgan va mamlakatlarning ta'lim tizimidagi ahvolimizni ko'rsatib turadigan xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati va uning davr talabiga aylanib bo'lishiga sabablari keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** xalqaro baholash dasturi, PISA, ahamiyat, reyting, o'quv dasturi, sinov, tadqiqot, bilim.

## ВАЖНОСТЬ ПРОГРАММ МЕЖДУНАРОДНОЙ ОЦЕНКИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ И РОЛЬ PISA В ПРОГРАММЕ МЕЖДУНАРОДНОЙ ОЦЕНКИ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается важность международных оценочных программ, участие в которых важно для каждой страны сегодня, и которые показывают состояние системы образования нашей страны, а также причины, по которым она стала студентом эпохи.

**Ключевые слова:** международная программа оценки, PISA, важность, рейтинг, учебная программа, тест, исследование, знания.

## THE IMPORTANCE OF INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS IN PRIMARY EDUCATION AND THE ROLE OF PISA IN THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM

**Abstract.** This article discusses the importance of international assessment programs, participation in which is important for each country today, and which show the state of the education system of our country, as well as the reasons why it has become a student of the era.

**Keywords:** international assessment program, PISA, importance, ranking, curriculum, test, research, knowledge.

Bugungi kunda ta'lim tizimi tezlik bilan rivojlanayotgan bir paytda dunyo hamjamiyatida xalqaro baholash dasturlariga bo'lgan talab yildan yilga kuchayib bormoqda. Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi (inglizcha: *Programme for International Student Assessment*) — turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur bo'lib hisoblanadi.

Xalqaro baholash dasturlariga PISA PIRLS, TIMSS, EGRA, EGMA, TALIS kabi dasturlar barcha davlatlarni qamrab olib ulardagi ta'lim tizimini baholab, rivojlanishiga katta yordam va ko'zgusi vazifasini bajarib kelmoqda. Chunki bu tadqiqotlar har bir davlatning ta'limini ko'rsatib ularni reytingdagi natijasida xulosa chiqargan holda darsliklarini va dasturlarini qayta yangilashiga sabab bo'lyapti. Oxiri o'rinda turgan davlat yetakchi davlatning ta'lim tizimini olgan holda o'zining ta'lim tizimidagi kamchiliklarini tuzatib kelmoqda. Shu jumladan biz ham hozirda yangi darsliklarida quyidagi keltirib o'tilgan xalqaro baholash dasturlarining ahamiyatini bilgan holda yangi topshiriqlarini kiritib kelmoqdamiz. Bu yurtimizdagi ta'lim tizimiga bo'lgan e'tiborini ko'rsatib turibdi. Hozirda PISA dasturiga ham alohida e'tibor berilmoqda.

Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi (inglizcha: *Programme for International Student Assessment*) — turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur. PISA testlari maktab o'quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo'ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko'nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta'lim tizimining bu o'zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Ushbu dastur 1997-yilda joriy etilgan bo'lib, har uch yilda bir marta o'tkaziladi, birinchi marta 2000-yilda o'tkazilgan. Har uch yilda bitta fan yo'nalishiga afzallik berilib, jami testlar majmuasining deyarli 50% shu fanga mansub bo'ladi. 2000-yilda ilk bor o'qish savodxonligiga urg'u berilgan.

Test Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan yetakchi xalqaro ilmiy tashkilotlar bilan konsorsiumda, milliy markazlar ishtirokida tashkil etiladi. Tadqiqotda

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo bo'lgan davlatlar, shuningdek, OECD bilan hamkorlik aloqalari bo'lgan davlatlar ishtirok etadi. PISA tadqiqoti monitoring tadqiqoti bo'lib, u turli mamlakatlardagi ta'lim tizimlarida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni aniqlash va solishtirish, ta'lim sohasidagi strategik qarorlar samaradorligini baholash imkonini beradi. 2000-2015-yillar oralig'ida o'tkazilgan tadqiqot natijalari bo'yicha bugungi kunda Sharqiy Osiyoda — Xitoy, Koreya, Singapur, Yaponiya, Yevropada — Finlandiya, Estoniya, Shveysariya, Polsha va Niderlandiya kabi mamlakatlarning o'rta ta'lim tizimi yaxshi rivojlangan.

PISA testlari 5 ta yoʻnalish boʻyicha oʻqish, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy fanlar, hamkorlikda muammolarni hal qilish va moliyaviy savodxonlik oʻtkaziladi. Testlarda asosiy eʼtibor oʻquvchilarning mazkur yoʻnalishlar boʻyicha eng asosiy tushunchalarni bilishi, bazaviy bilim va koʻnikmalarni egallagani, ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishiga qaratiladi.

**PISA** sinovlarida toʻrt xil sinov usulidan foydalaniladi:

**1. Bir javobli testlar;**

**2. Bir nechta javobli testlar;**

**3. Qisqa yoki batafsil javob yoziladigan savollar;**

**4. Biror muammoning yechimi boʻyicha oʻquvchi fikri** (odatda bunday savollarda tekshiruvchida umumiy javoblar boʻladi, oʻquvchi javobi test tuzuvchi javobiga aynan mos kelishi talab qilinmaydi, oʻquvchi ijodkorligi qoʻllab quvvatlanadi).

Bundan tashqari testlar bilan bir vaqtda oʻquvchilardan anketalar ham olish nazarda tutilgan. Oʻqish savodxonligi: Insonning matn shaklida berilgan maʼlumotlarni tushuna olish va ularga reaksiya bera olish koʻnikmasi, jamiyat hayotida faol qatnashish jarayonida oʻqigan maʼlumotlaridan oʻz maqsadlari yoʻlida foydalana olish, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqati. Bu yerda, **oʻqish savodxonligi tushunchasi** keng maʼno kasb etadi. Bu yoʻnalish maqsadi oʻquvchining berilgan badiiy asardan parcha, biografiya, xat, hujjat, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar, turli qoʻllanmalar, geografik kartalar kabi rang-barang matematikadagi, tarkibida matnni ochib berishga moʻljallangan diagrammalar, rasmlar, kartalar, grafik va jadvallar berilgan matnni tushinishi, mazmuni haqida fikr yurita olish, matn mazmuniga baho berish va oʻqiganlari haqida oʻz fikrini bera olishi kabi kompetensiyalarini aniqlash hisoblanadi. Hozirda yurtimizda bunga oid koʻplab darslik va oʻquv qoʻllanmalar ishlab chiqilmoqda.

**Matematik savodxonlik:** Insonning matematikaning oʻzi yashayotgan olamdagi oʻrnini bilishi, matematik jarayonlarni toʻgʻri va toʻliq asoslay olishini tekshiradi. Bu boʻlimdagi savodxonlik terminidan bu boʻlim maqsadi odatda maktab dasturida beriladigan bilimlarni qay darajada oʻzlashtirganini aniqlash emasligini koʻrsatish uchun foydalanilgan. Asosiy eʼtibor matematik bilimlardan turli xil hayotiy vaziyatlarda fikrlash va intiutiv qaror qabul qilish talab qilinadigan turli uslublaridan qoʻllagan holda foydalana olish nazarda tutiladi. Lekin bu turdagi savollarga javob berishda maktab dasturida beriladigan bilim va koʻnikmalar zarur boʻlishi mumkin. Hozirda olingan bilimlarini qoʻllash keng ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ham bizda ham bunga alohida eʼtibor berilmoqda va darsliklarda bunday masalalarni alohida shartli belgi asosida kiritib kelmoqdamiz.

**Tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi:** Hayotiy hodisalarda ilmiy usulda hal qilinishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash, kuzatuv va tajribalar asosida xulosalar chiqarishni o'z ichiga oladi. 2000-yilda 32 davlatdan 265 000 o'quvchilar PISA test sinovidan o'tgan. Ushbu yilda asosiy mavzu — o'qish va o'qilgan narsalarni tushunish qobiliyati tanlangan bo'lib, test savollarining uchdan ikki qismi aynan shu mavzuga bag'ishlangan. PISA-2003 da 43 mamlakatdan 275 000 dan ortiq o'quvchi ishtirok etdi. O'qish bo'yicha Finlandiya 543 ball bilan birinchi o'rinni egalladi. Rossiya — 442 ball, AQSh — 495 ball, Serbiya — 412 ball olgan.

Tabiiy fanlar yo'nalishi bo'yicha Finlandiya yetakchilik qilgan (549 ball).Dunyoda yuzdan ortiq davlat o'z mamlakatida joriy etilgan ta'lim sifatini xolisona baholash maqsadida PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS, EGRA hamda EGMA kabi xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etadi.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda xalqaro baholash dasturining ahamiyati juda muhim hisoblanadi. Hozirda yurtimizda bunga oid ko'plab darslik bilan bir qatorda yangi milliy o'quv dasturi ham ishlab chiqildi va ularga o'zgartishlar kiritib kelinmoqda. Biz talaba va o'qituvchilar ham buni bilgan holda olgan bilimlarimiz amalda qo'llab, ushbu dasturlarda ishtirokimizga o'z hossamizni qo'shib o'quvchilarga bu baholash dasturlarining ahamiyati tuahuntiraylik.

## REFERENCES

1. Abdullayeva B.S, Saidova M.J, Dilova N.G'. "Matematika o'qitish metodikasi "darslik Buxoro 2021
2. Saidova M.J. " Xalqaro baholash tizimi" darslik Buxoro 2024
3. Saidova M J. "Ta'limda multimediya texnologiyalardan foydalanish" darslik "Durdona" 2022
4. Abdullayeva B.S, Saidova M.J. darslik 2022
5. Kasimov F.M, Saidova G.E. darslik 2024
6. "Xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 5712 sonli " qarori.
7. Saidova, G. E. (2021). BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI MANTIQUIY MASALALAR YECHISHNI O'RGATISH. Scientific progress, 2(6), 1021-1024.
8. Ergashovna, S. G. (2021). Formation Of Concepts About Length In Primary School Students, Developing Length Measuring Skills. European Scholar Journal, 2(4), 109-113.

9. Saidova, G. (2023). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 28(28).
10. Saidova, G. E. (2021). BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI MANTIQIY MASALALAR YECHISHNI O'RGATISH. Scientific progress, 2(6), 1021-1024.
11. Saidova, G. E. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARNING O 'QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH. Conferencea, 33-37.
12. Ergashovna, S. G. (2023, February). BOSHLANG'ICH SINF TARBIYA DARSLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV. In E Conference Zone (pp. 1-4).
13. Vikipediya ma'lumotlarini